
"Beruniy" mahallasida sug'orish tizimi yangilanmoqda

Ayni kunlarda Farg'ona shahridagi mahalla fuqarolar yig'inlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi «2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-408-sonli qaroriga asosan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, "Beruniy" mahalla fuqarolar yig'ini hududida bir necha yillardan buyon sug'orish tizimi yaxshi bo'lmaganligi aholining haqli e'tirozlariga sabab bo'lar edi. Qaror asosida mazkur mahallaga 3 ta sug'orish uchun tik quduqlar qazilishi belgilangan. Hozirda qurilish tashkiloti tomonidan ish jarayonlari bajarilmoqda. Qurilish ishlari uchun respublika byudjetidan 1 mlrd. so'mdan ortiq mablag' ajratilgan.

2023-03-16 11:34:40